

O'zbek milliy avtomagistrali qurilishi masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani




2016 yilning 15 mart kuni Milliy matbuot markazida "O'zavtoyo'l" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun **"O'zbek Milliy avtomagistralini qurish borasida amalga oshirilgan ishlar, belgilangan vazifalar, yo'l va ko'priklar qurilishi borasida erishilgan natijalar, tajriba, yangilik va muammolar"** mavzuida matbuot anjumani o'tkazildi.

Matbuot anjumanida yetmishga yaqin O'zbekiston OAV xodimlari, shuningdek kompaniyaning barcha boshqarmalari rahbarlari ishtirok etishdi.

Ma'lumot uchun: Bugungi kunda respublika avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi **184 000 km** ni tashkil etib, shundan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari **42 676 km** dan iborat.

Jumladan, O'zbek milliy avtomagistralining umumiy uzunligi 2755 km. ni tashkil qiladi.



Respublikamizda umumiy ravishda yukva yo'lovchi tashishning 90 foizga yaqin hajmini avtotransport ulushi tashkil qiladi. Bu mamlakatimizda yo'l-transport infratuzilmasini yanada mustahkamlash masalasi nechog'lik dolzarbligidan dalolat beradi. Avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangilarini qurish va ularni jahon andozalariga moslashtirish bo'yicha kompaniya oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash uchun mamlakat miqyosida qabul qilinayotgan Investitsion dasturlarning ahamiyati ulkan bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 martda qabul qilingan **"2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"**gi PQ-2313-sonli qarori mamlakatimizdagi yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun dasturilamalidir.

Mazkur Qaror bilan 2015-2019 yillarda "O'zbek milliy avtomagistrali" tarkibiga kiruvchi respublikadagi avtomobil yo'llari qismlari va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, shuningdek, yo'l tashkilotlarining ishlab chiqarish bazalarini texnik rivojlantirish chora-tadbirlarining manzilli ro'yxati tasdiqlangan. Unga ko'ra, 2015-2019 yillar davomida umumiy hisobda – **2699,8 km** uzunlikdagi yo'llarda

qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari ko'zda tutilgan.

Shuningdek, qarorda 4 ming km dan ziyod xo'jaliklararo qishloq yo'llari, qariyb 2 ming km shahar ko'chalari, qishloqva tuman markazlari yo'llari ta'mirlanishi belgilangan.

Bundan tashqari, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash maqsadlari uchun jami **993 dona** yo'l-qurilish texnikalari va uskunalarini xarid qilish ham belgilab berilgan.

Qayd etish joizki, dastur doirasida 2015 yilda **376,3 km** uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari belgilangan bo'lsa, amalda jami **382,4 km** uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilinib, jami **1268,5 mlrd. so'm** miqdoridagi investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi.



Shundan, "O'zavtoyol" kompaniyasi korxonasi va tashkilotlari tomonidan o'tgan yilda **143,6 km** uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari belgilangan bo'lib, amalda **149,7 km** uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilindi, hamda dastur doirasida jami **544,1 mlrd. so'm** miqdoridagi mablag'lar to'liq o'zlashtirildi.

Bajarilgan yo'l ishlarini yirik ob'ektlar misolida ko'radigan bo'lsak, asosiy transport koridorlaridan biri hisoblangan, xalqaro ahamiyatdagi A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo'lida 118,0 km, M-37 "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" avtomobil yo'lida 37,5 km, A-373 "M-39 a/y-Guliston-Bo'ka-Angren-Qo'qon va Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'lida 15 km, M-39 "Olmaota-Bishkek-Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lida 57,0 km, Qarshishahrining yangi aylanma yo'lida 12,0 km, 4R87 "G'uzor-Chim-Ko'kdala" avtomobil yo'lida 35,0 km uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilindi.

2015 yilda O'zbek milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi 1000 p/m dan ziyod yo'l o'tkazgich va ko'priklar qurildi hamda rekonstruktsiya qilindi.

Umuman, "O'zavtoyol" kompaniyasi tarkibidagi tashkilot va korxonalar tomonidan 2015 yil davomida jami 1,4 trln.so'mlik yoki 2014 yilga nisbatan 136,0 % ga ko'p yo'l qurilish, ta'mirlash va saqlash ishlari bajarildi.

2016 yil Investitsiya dasturiga ko'ra 512,9 km avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish rejalashtirilgan bo'lib, ushbu maqsadlarga 1379,9 mlrd. so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Shu jumladan, "O'zavtoyul" AK tizimidagi korxonalar tomonidan 176,3 km avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya ishlari amalga oshiriladi.

Hozirda, Qarshi shahar yangi aylanma yo'li, A-380 (43 km) avtomobil yo'li va "Qarshi-Toshguzor-Qumqo'rg'on" temir yo'li kesishmasida yo'l o'tgazgich qurilmoqda.

2016 yilda O'zbek milliy avtomagistrali hamda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 6 ta yul o'tkazgich va 10 ta yangi ko'priklar kurilishi rejalashtirilgan



Shuningdek, yangi Toshkent aylanma yo'lining uchastkalarini qurish va rekonstruktsiya qilish, jumladan 4R12 avtomobil yo'lining 17 km dan 4R1 avtomobil yo'lining 39 km gacha bo'lgan 6 km uzunlikdagi Chirchiq daryosi ustiga ko'priq qurish bilan yangi yo'nalishdagi avtomobil yo'lini qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda avtomobil yo'llarining qoplama va asoslari M-200 markali bosib zichlanadigan betondan qurish bo'yicha tajriba-sinovdan o'tkazilib, amaliyotga tadbiiq etildi. Mazkur yo'nalishda tegishli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan tasdiqlandi.

Ushbu texnologiyani qo'llash natijasida 1 km uzunlikdagi I - toifadagi avtomobil yo'lini qurilishiga sarflanadigan 288,6 tn miqdoridagi yo'l bop bitum mahsuloti tejiladi. Joriy yilda 28,0 ming tn bitum mahsuloti iqtisod qilinib, 39,2 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' tejilishi kutilmoqda.

Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchilari tomonidan qish mavsumida kimyoviy reagentdan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, Qamchiq dovonida sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, ushbu reagentning ekologik toza va samarador vosita ekanligi aniqlandi. Xususan, muzni eritish jarayonida tuzo'zidan sovuqlik, reagent esa aksincha issiqlik chiqaradi. Natijada muz va qorningerishi odatdagidan tezlashishi kuzatildi. Bu tajribani amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha

yo'riqnoma ishlab chiqildi.

Yo'lsozlik sohasida kadrlarning malakasini oshirish, ularning jahon tajribasini o'rganishiga ham alohida e'tibor beriladi. Jumladan, 2015 yilda avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va loyihalashda rivojlangan davlatlar bilan tajriba almashish hamda yo'l ob'ektlari bilan tanishish maqsadida "O'zavtoyol" aktsiyadorlik kompaniyasida tizimidagi korxonalar va tashkilotlar vakillaridan iborat delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasida, Belgiya va Niderlandiyada bo'lib, tajriba almashishdi.

Matbuot anjumanida ommaviy axborot vositalari vakillari mavzu doirasida o'zlarini qiziqtirgan bir qator savollarga ham atroflicha javob olishdi.

"O'zavtoyol" AK Matbuot xizmati